



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO‘RSATKICHLARI

2023- YIL YANVAR-APREL


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FAOLIYAT KORSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2023- yilning 1- may holatiga O‘zbekiston Respublikasida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 36 009 tani tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning aprel oyida jami 903 ta yangi qurilish korxonasi tashkil etilib, ularning faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalariga nisbati 2,5 % ni tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya‘ni 7 139 tasi yoki respublikadagi jami korxonalarining 19,8 % i Toshkent shahrida joylashgan.

2023- yil 1-may holatiga qurilish korxonalarini soni, birlikda



Toshkent sh.	7 139
Toshkent	3 086
Farg‘ona	3 014
Qashqadaryo	2 970
Buxoro	2 566
Samarqand	2 554
Surxondaryo	2 548
Andijon	2 378
Qoraqalpog‘iston R.	1 873
Namangan	1 779
Xorazm	1 736
Jizzax	1 613
Navoiy	1 533
Sirdaryo	1 220

19 574

5 305

11 130

Bino va inshootlar qurilishi

Fuqarolik obyektlarini qurish

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Shuningdek, Toshkent shahrida 7 139 ta (respublika bo‘yicha ularning jami soniga nisbatan 19,8 %), Toshkent viloyatida – 3 086 ta (8,6 %) qurilish korxonalarini mavjud bo‘lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko‘rsatkichga ega.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-aprel uchun)


2023- yilning yanvar-aprel oylarida, O'zbekiston Respublikasida jami 41 672,2 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,6 % ni tashkil etdi.



Oldingi yilning mos davriga nisbatan



Ma'lumot uchun: qurilish faoliyati bu – o'z kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.



2023- yilning yanvar-aprel oylarida O'zbekiston Respublikasida qurilish ishlari

Hududlarning hajmi va 2022- yilning mos davriga nisbati,
mlrd. so'm va foizda




2023- yilning yanvar-aprel oylarida hududlar kesimida xususan, Toshkent shahri (9 956,8 mlrd. so'm), Toshkent viloyati (3 890,8 mlrd. so'm) va Farg'ona viloyatida (2 663,8 mlrd. so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

2023- yilning yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2023-yilning yanvar-aprel oylarida O'zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 68,8 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,8 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 19,7 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 114,7 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 11,5 % ulushni va 2022- yilning mos davriga nisbatan 94,4 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

2023- yilning yanvar-aprel oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 67,1 % i yoki 27 958,3 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa jtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

8 874,8
mlrd. soʻm

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 8 874,8 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 31,8 % ni tashkil etdi.

31,8 %

13 481,5
mlrd. soʻm

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 13 481,5 mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 48,2 % ni tashkil etdi.

48,2 %

5 602,0
mlrd. soʻm

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 5 602,0 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 20,0 % ni tashkil etdi.

20,0 %

Yillar kesimida yangi qurilishning hajmi va ulushi

15 389,6
mlrd. soʻm



21 740,1
mlrd. soʻm



21 740,1
mlrd. soʻm



67,1 %




27 958,3
mlrd. soʻm



2023- yilning yanvar-aprel oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari ulushi


2023- yilning yanvar-aprel oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Toshkent shahri (5 673,0 mlrd. so'm), Farg'ona viloyati (1 904,3 mlrd. so'm), Toshkent viloyati (1 754,8 mlrd. so'm) va Samarqand viloyatida (1 710,6 mlrd. so'm) qayd etildi.



2023- yilning yanvar-aprel oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bino va inshootlarni qurish – 28 693,3 mlrd. so'm



Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1- yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq **"Qurilish" faoliyati bo'yicha "faoliyat turi bo'yicha o'z kuchi bilan amalga oshirilgan ishlar hajmi"** ko'rsatkichi qo'llaniladi..


Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 27,8 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,2 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,1 % punktga ko'payib, 50,4 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,1 % punktga ko'payib, 21,8 % ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-aprel oylarida bino va inshootlar qurilishi

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



Maʼlumot uchun: Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Jizzax viloyati (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 81,0 % i), Andijon viloyati (77,8 %) va Fargʻona viloyati (75,5 %)da kuzatildi.



Jizzax viloyati
81,0 %




Andijon viloyati
77,8 %



Fargʻona viloyati
75,5 %

2023- yilning yanvar-aprel oylarida fuqarolik
obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari
Korxonalar turlari bo'yicha

Fuqarolik obyektlarini qurish, *mlrd. so'm*



Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, truboprovodlar va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 20,9 % ni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 4,5 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 79,0 % (4,5 % punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi va o'zgarishsiz qoldi.

2023- yilning yanvar-aprel oylarida fuqarolik obyektlarini qurish

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda

8 202,3

469,7

191,2

477,6

131,8

477,3

389,6

166,0

1 767,0

393,9

209,6

864,4

500,7

390,6

1 772,9

Oʻzbekiston Resp.

Qoraqalpogʻiston Resp.

Andijon

Buxoro

Jizzax

Qashqadaryo

Navoiy

Namangan

Samarqand

Surxondaryo

Sirdaryo

Toshkent

Fargʻona

Xorazm

Toshkent sh.

Maʼlumot uchun:

Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Samarqand viloyati (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 69,6 % i), Qoraqalpogʻiston Respublikasi (29,9 %) va Xorazm viloyati (29,2 %)da kuzatildi.




69,6 %

Samarqand viloyati



29,9 %

Qoraqalpogʻiston Respublikasi




29,2 %

Xorazm viloyati

2023- yilning yanvar-aprel oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, mlrd. so'm



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 2,3 % punktga ko'paydi va 17,7 % ni tashkil etdi.

Qolgan 82,3 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 2,3 % punktga kamaydi.

2023- yilning yanvar-aprel oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda

4 776,6

Maʼlumot uchun:

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi

Namangan viloyati (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 20,8 % i), Toshkent viloyati (19,4 %) va Toshkent shahrida (18,6 %) kuzatildi.



20,8 %

Namangan viloyati



19,4 %

Toshkent viloyati




18,6 %

Toshkent sh.


2023- yilning yanvar-aprel oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, mlrd. so'mda




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Jami hajmga nisbatan ulushi




Yirik qurilish tashkilotlari

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –
102,5 %



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –
106,4 %




Norasmiy sektor

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –
100,9 %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-aprel oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-aprel oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 10 518,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 102,5 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 0,7 % ga kamayib, 25,2 % ni tashkil etdi.

Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-aprel oylarida bajarilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



Jamiga nisbatan ulushi

19,8 %




Qashqadaryo viloyati

19,7 %



Toshkent sh.

19,1 %




Samarqand viloyati

Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qashqadaryo viloyati (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 19,8 % i), Toshkent shahrida (19,7 %) va Samarqand viloyatida (19,1 %) qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2023- yilning yanvar-aprel oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi




2023- yilning yanvar-aprel oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 59,7 % i to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,6 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 106,4 % ni tashkil etgan holda 24 877,1 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



2023- yilning yanvar-aprel oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar

Hududlarning hajmi, mlrd. so‘m




Jamiga nisbatan ulushi



Toshkent shahri



Toshkent viloyati



Samarqand viloyati

Ma‘lumot uchun: ko‘rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent shahrida (7 171,3 mlrd. so‘m), Toshkent viloyatida (2 360,3 mlrd. so‘m) va Samarqand viloyatida (1 865,3 mlrd. so‘m) qayd etildi.

2023- yilning yanvar-aprel oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi




Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 15,1 % ni yoki 6 276,6 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 100,9 % ni tashkil etdi. Shundan 4 694,2 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,2 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 907,9 mlrd. soʻmni va 102,8 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 674,5 mlrd. soʻmni va 85,7 % ni tashkil etdi.



2023- yilning yanvar-aprel oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



879,0 mlrd. soʻm
Toshkent viloyati



820,7 mlrd. soʻm
Toshkent shahri




535,5 mlrd. soʻm
Fargʻona viloyati

Maʼlumot uchun: koʻrib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent viloyatida (879,0 mlrd. soʻm), Toshkent shahrida (820,7 mlrd. soʻm) va Fargʻona viloyatida (535,5 mlrd. soʻm) qayd etildi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Yanvar-aprel oylaridagi hajm, mlrd. so'mda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 1 189,1 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 40 483,1 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda 2,9 % va 97,1 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Jizzax viloyatida (ushbu viloyatdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 99,6 % i), Surxondaryo viloyatida (qurilish ishlari umumiy hajmining 99,3 % i) va Toshkent shahrida (ushbu viloyatdagi umumiy qurilish ishlarining 98,4 % i) qayd etildi.

Qurilish ishlari USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari maydoni rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlariga – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlari kiritiladi.

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi
Tel. 71 203-80-00 (1161)**